

SHARQSHUNOSLIK  
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ  
ORIENTAL STUDIES

3

2025

ILMIY JURNAL  
ISSN 2181-8096



**SHARQSHUNOSLIK**  
**ВОСТОКОВЕДЕНИЕ**  
**ORIENTAL STUDIES**

---

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY  
OF ORIENTAL STUDIES

**№ 3, 2025**



Jurnal O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi ro'yxatidan qayta o'tgan (№ 02-0053, 26.09.2014-y – ISSN 2181 – 8096

**Bosh muharrir – Rixsiyeva Gulchehra Shavkatovna**

*filologiya fanlari nomzodi, professor*

**Tahrir hay'ati**

- |                         |  |
|-------------------------|--|
| <b>D. Sayfullayev</b>   | <i>tarix fanlar doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)</i>                 |
| <b>D. Muxiddinova</b>   | <i>filologiya fanlari doktori (mas'ul kotib)</i>                                   |
| <b>A. Mannonov</b>      | <i>filologiya fanlari doktori, professor</i>                                       |
| <b>R. Xodjayeva</b>     | <i>filologiya fanlari doktori, professor</i>                                       |
| <b>Sh. Shomusarov</b>   | <i>filologiya fanlari doktori, professor</i>                                       |
| <b>Q. Omonov</b>        | <i>filologiya fanlari doktori, professor</i>                                       |
| <b>U. Muxibova</b>      | <i>filologiya fanlari doktori, professor</i>                                       |
| <b>X. Xamidov</b>       | <i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>                           |
| <b>B. Abduhalimov</b>   | <i>tarix fanlari doktori, professor</i>  |
| <b>A. Xodjayev</b>      | <i>tarix fanlari doktori, professor</i>  |
| <b>M. Is'hoqov</b>      | <i>tarix fanlari doktori, professor</i>  |
| <b>A. Doniyorov</b>     | <i>tarix fanlari doktori, professor</i>  |
| <b>I. Xaydarov</b>      | <i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>  |
| <b>X. Fayziyev</b>      | <i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>  |
| <b>N. Karimov</b>       | <i>tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>                                |
| <b>D. Xodjimuratova</b> | <i>tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>                                |
| <b>Sh. Yovqochev</b>    | <i>siyosiy fanlar doktori, professor</i>   |
| <b>N. Abdullayev</b>    | <i>siyosiy fanlar doktori, dotsent</i>   |
| <b>A. Vahobov</b>       | <i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>  |
| <b>R. Abdullayev</b>    | <i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>  |
| <b>I. Mavlanov</b>      | <i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>  |
| <b>R. Bahodirov</b>     | <i>falsafa fanlari doktori, professor</i>  |
| <b>E. Izzetova</b>      | <i>falsafa fanlari doktori, professor</i>  |
| <b>G. Glizon</b>        | <i>AQSHning New Mexico universiteti professori</i>                                 |
| <b>A. Shonazarova</b>   | <i>AQSHning Kolumbiya universiteti professori</i>                                  |
| <b>Ono Masaki</b>       | <i>Yaponiyaning Tsukuba universiteti professori</i>                                |
| <b>Li Dji In</b>        | <i>Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar universiteti professori</i>          |
| <b>V. Mesamed</b>       | <i>Isroilning Quddus universiteti professori</i>                                   |
| <b>A. Gurer</b>         | <i>Turkiyaning Anqara universiteti professori</i>                                  |
| <b>A. Vorobyov</b>      | <i>Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi</i>     |
| <b>G. Avda</b>          | <i>Misr Arab Respublikasining Helvon universiteti professori</i>                   |
| <b>A. Tohir</b>         | <i>Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori</i> |
| <b>H. Baydemir</b>      | <i>Turkiyaning Otaturk universiteti professori</i>                                 |

**Nashrga tayyorlovchilar:**

**J. Ismoilov, A. Ziyodov, Sh. Askarova, D. Sodiqova**

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: [nashriyot@tsuos.uz](mailto:nashriyot@tsuos.uz)

web-site: [www.tsuos.uz](http://www.tsuos.uz)

**MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS****ADABIYOTSHUNOSLIK// ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE**

- D.Sodiqova* Bin Sin she'rlarida intertekstuallik..... 5  
*B.Ibragimov* Elbek hikoyalarning o'ziga xos xususiyatlari ..... 16

**TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK //  
 ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ //  
 LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION**

- X Alimova., R.Sirojiddinova.* Hozirgi daryi tili iqtisodiy terminologiyasida  
 forscha leksik interferensiyalar ..... 26  
*S.Mustafayeva* O'rta xitoy tilida murojaat so'zlarning lingvopragmatik xususiyatlari... 33  
*Sh. Shamsiyeva* Androsentriзмning til sathlarida voqelanishi..... 42  
*M Jumaniyazov* "Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb" asarida aslga o'xshash  
 tushum kelishigidagi ismlarning tahlili ..... 55  
*A. Diniqulov* Arab maqol-matallarida fe'llar lingvomadaniy omil sifatida ..... 67

**MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK //  
 ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ //  
 SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY**

- U.Abdullayev* Amir Temur davlati xalqaro munosabatlari tarixini tadqiq  
 etishning konseptual asoslari..... 78  
*O.Mahmudov* Musulmon sharqi mutafakkirlari asarlarining Yevropaga  
 tarqalish bosqichlari va geografik yo'nalishlari ..... 87  
*A.Egamberdiyev* Davriy matbuot sahifalarida Sharqiy Turkistondagi siyosiy  
 voqealarga doir masalalarning yoritilishi (XIX asr oxirlari) ..... 98  
*L.Elimov* G'arb va Sharq mualliflari asarlarida Amir Temur  
 davlatining vujudga kelishi haqida ..... 111

**XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT //  
 МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА //  
 INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS**

- A. Eshankulov* Markaziy Osiyo mamlakatlari parlamentlararo  
 aloqalarini rivojlantirish istiqbollari ..... 123  
*D.Eshankulova* Islom hamkorlik tashkiloti jahon siyosatida  
 diniy-sivilizatsion omil sifatida..... 135



|  |     |
|--|-----|
| <i>O'Qalandarov</i> Islom inqilobi va Eron tashqi siyosatining yangi paradigmalarning shakllanishi.....  | 146 |
| <i>Sh.Salimov</i> Koreya Respublikasi siyosiy partiyalarini faollashtirishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli .....                        | 156 |
| <i>N.No'monjonova</i> Xitoyning global muammolarni hal qilish bo'yicha tashqi siyosat strategiyasi: konseptual yondashuvlar va amaliy tahlil ..... | 168 |
| <i>N.Meliyev</i> Markaziy Osiyo mintaqasida transport tizimini rivojlantirish imkoniyatlari .....  | 176 |
| <i>D.Botirov</i> Siyosiy partiyalar faoliyatidagi zamonaviy tendensiyalar tahlili .....  | 190 |
| <i>U.Shukurillayev</i> The Chinese Factor in Ensuring Energy Security of Central Asian States.....   | 200 |
| <i>O. G'aybullayev</i> Markaziy Osiyo energetika tizimi: global raqobat maydonida.....   | 214 |



## O'RTA XITOIY TILIDA MUROJAAT SO'ZLARINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

**Samida Mustafaeva**

*dosenti, DSc. TDSHU*

**Annotatsiya.** Murojaat tilda turlicha shaklda qo'llanishi mumkin. Har bir tildagi murojaat shakllarining yuzaga kelishi va taraqqiyoti til sohiblarining milliy madaniyati va qadriyati, ular ongidagi olam manzarasi, qolaversa, jamiyatda kechgan ijtimoiy-siyosiy, tarixiy jarayonlarga ham uzviy bog'liqdir. Mazkur maqola doirasida o'rta xitoy tili leksikasini aks ettirgan 《水浒传》 (“Water Margin”) romanida qo'llangan murojaat so'zlarining morfologik, leksik, funksional-grammatik tahlili amalga oshirilgan.

**Kalit so'zlar.** Murojaat so'zlar, murojaat shakllari, o'rta xitoy tili, 《水浒传》 (“Water Margin”), og'zaki murojaat shakllari, yozma nutqqa xos murojaat shakllari, lingvopragmatika, dialektal omil.

**Abstract.** Forms of address in a language can be used in various ways. The emergence and development of address forms in each language are closely related to the national culture and values of the native speakers, the world view in their minds, as well as the socio-political and historical processes that have taken place in society. This article provides a morphological, lexical, and functional-grammatical analysis of the address words used in the novel “Water Margin” (《水浒传》), which reflects the lexicon of the Middle Chinese language.

**Key words:** Address words, forms of address, Middle Chinese, “Water Margin” (《水浒传》), oral forms of address, written forms of address, linguopragmatics, dialectal factor.

**Аннотация.** Формы обращения в языке могут использоваться в различных проявлениях. Возникновение и развитие форм обращения в каждом языке неразрывно связаны с национальной культурой и ценностями носителей языка, картиной мира в их сознании, а также с общественно-политическими и историческими процессами, происходящими в обществе. В рамках данной статьи проводится морфологический, лексический и функционально-грамматический анализ слов-обращений, использованных в романе «Речные заводи» (《水浒传》), отражающем лексику среднекитайского языка.

**Ключевые слова:** Слова-обращения, формы обращения, среднекитайский язык, «Речные заводи» (《水浒传》), формы устного обращения, формы обращения в письменной речи, лингвопрагматика, диалектальный фактор.

**Kirish.** Xitoy adabiy tili taraqqiyotida dunyoning barcha tillarida bo'lgani kabi ichki va tashqi omillarning o'ziga xos ta'siri kuzatiladi. Ammo tarixiy taraqqiyotda boshqa tillardan birmuncha farqlanadigan jihatlar ham yo'q emas. Xususan, xitoy adabiy tili taraqqiyotida nafaqat mohiyatan, balki adabiy til shakllarini aks ettiruvchi 雅言 *yǎ yán*, 文言 *wényán*, 白话 *báihuà*, 国语 *guóyǔ* kabi qator terminlarda ham aks etgan. Boshqa tomondan muayyan tarixiy davrlarda ikki adabiy til shaklining parallel



muomalada bo‘lishi ham ana shunday unikaliyalardan biri hisoblanadi. Hozirgi xitoy adabiy tili (standart) tilning shakllanishida shubhasiz *báihuà* fundamental ahamiyat kasb etgan. *Baihuani*ning shakllanishida esa, o‘z navbatida, badiiy nasrning o‘rni beqiyos sanaladi. *Baihua* takomilining o‘rta davrdan yetuklik davriga o‘tishida “ko‘prik” vazifasini o‘tagan asarlardan biri Ming davriga oid bo‘lishiga qaramay asosan Sung sulolasi davri leksikasini gavdalantiruvchi 《水浒传》 “*Shuǐhǔ zhuàn*” romani hisoblanadi. Asar xitoy tilining o‘sha davrda mavjud ikki standart shakli *wenyan*, *baihua* hamda shevaga xos leksikani jamlagani va ularni o‘ziga xos “sintez”dan o‘tkazib bergani nafaqat keyingi davr xitoy tili, balki hozirgi xitoy adabiy tili *putonghua* rivoji uchun ham katta hissasi deb baholashimiz mumkin.

**Maqsad va vazifa:** Mazkur maqola doirasida 《水浒传》 “*Shuǐhǔ zhuàn*” romanida uchraydigan murojaat so‘zlarni lingvopragmatik o‘rganish orqali biz bir tomondan, o‘rta xitoy tili leksik tizimida kechgan o‘zgarishlarni baholash imkoniga ega bo‘lsak, ikkinchi tomondan 《水浒传》 “*Shuǐhǔ zhuàn*”ning xitoy adabiy tili leksikasining tarixiy takomiliga qo‘shgan hissasi haqida xulosalarni olamiz.

**Usullar:** maqolani yozishda tavsifiy, komponent tahlil, tarixiy-qiyosiy metodlardan foydalanilgan.

**Natijalar va mulohaza:** 《水浒传》 “*Shuǐhǔ zhuàn*” asarida murojaat so‘zlarni semantik-funksional xususiyatlariga ko‘ra bir qancha guruhlariga ajratishimiz mumkin: 1) xizmat va lavozimga ko‘ra qo‘llanuvchi murojaat so‘zlar; 2) qarindoshlarga nisbatan qo‘llanuvchi murojaat so‘zlar; 3) qondoshlik aloqalari bo‘lmagan shaxslarga nisbatan qo‘llanuvchi murojaat so‘zlar.

“Shuyxu juan” asarida davrga xos lavozim, mansab va kasb-korni ifodalovchi otlar salmoqli o‘rin egallaydi, asar qahramonlari davlat va hukumat idoralari eng yuqori lavozimlardan tortib, jamiyatdagi eng quyi kasblarda faoliyat yuritadi. Masalan, romanning birinchi bobida yuzaga chiqadigan qahramon Xung Sin 太尉 *tài wèi* lavozimini egallagan. 且说太尉洪信赍擎御书丹诏，一行人从上了路途，夜宿邮亭，朝行驿站，远程近接，渴饮饥餐，不止一日，来到江西信州。 *Harbiy bosh qo‘mondon Xung Sin farmoni oliyni olgach, bir qancha odamlari bilan yo‘lga otlanibdi, tunni vaqtincha to‘xtash joylarida o‘tkazib, sahar karvonsaroylardan yo‘lga tushibdi. Olis yo‘llari yaqin bo‘lib, tashnalikda suv, ochiqqanda taomlanib, bir kun ham to‘xtamasdan Szyansining Sinjouiga yetib kelishibdi.* (Sh.X.1-bob, –B. 6). 太尉 *tài wèi* lavozimi Xitoyning Chin va Xan sulolalari davrida davlat markaziy harbiy qo‘shinining eng yuqori lavozimi bo‘lib, uni egallagan shaxs davlat boshqaruvidagi uch asosiy amaldordan biri sanalgan. Mazkur lavozim Yuan sulolasigacha saqlangan va shu istiloh bilan yuritilgan [1]. Yuqoridagi tavsifiy bayonda avval shaxs egallagan lavozim, so‘ng uning ismi sharifi keltirilgan. 赍擎 *jī qíng* yozma nutqqa xos so‘z bo‘lib, “eltmoq”, “yonida olib ketmoq (kelmoq)” ma‘nosini anglatadi. 御书 *yù shū* “imperator (umuman, monarx) bitgan hujjat”, “imperator xati” ma‘nolarini anglatrsa, 丹诏 *dān*



*zhào* bunda *zhào* “imperator chiqargan hujjat”, odatda, qaror va farmonlarni bildirgan, *丹 dān* asli qizil rangdagi mineralni anglatib, asosan, dori tayyorlashda qoʻllangan “qizil rang”ni ham anglatadi. Xalq soʻzlashuv nutqida 朱砂 *zhūshā* deb yuritilgan. *丹诏 dān zhào* imperator oʻzi bitgan xat-xujjat, odatda qizil siyohda yozilgan[1]. 一行人 *yī xíng rén* bu birikmada 行 *xíng* (yurmoq; odimlamoq) soʻzi hisob soʻzi sifatida qoʻllangan, birikma “bir guruh odamlar(i)” maʼnosiga ega. Muallif tilida asar qahramonlari dialogidan farqli ravishda bir qancha yozma uslubga xos leksik birliklar qoʻllangan. 赏 *shǎng*, 餐 *cān*, 饮 *yǐn*, 吃 *chī* “ichmoq”, 餐 *cān* “tanovul qilmoq” kabi soʻzlar shular jumlasidandir. Asarda qahramonlar tilida “yemoq” va “ichmoq” feʼllari maʼnosida, asosan, 吃 *chī* soʻzi qoʻllangan. Masalan: 李小二入来问道: “要吃酒?” Li Syaer ichkariga kirib kelib soʻradi: “Sharob ichasizmi?” (Sh.X. 10-bob, –B. 134). Bu misolda “ichmoq” maʼnosi 吃 *chī* soʻzi vositasida berilgan. Hozirgi xitoy tilida 吃 *chī* “yemoq” maʼnosida qoʻllanadi. “Ichmoq” maʼnosi uchun 喝 *hē* leksemasi qoʻllanadi, biroq, asarda mazkur leksema “baland ovozda gapirmoq; olqishlamoq; ovoza qilmoq” kabi maʼnolarda qoʻllangan. Masalan: 包节级正在亭心坐着看见, 便喝道: “这妇人是甚么人? 敢进牢里来送饭! 自古狱不通风” Ayni damda (qamoqxona) ayvonida oʻtirgan Ba Szie uni koʻrib baqirdi: “Bu xotin kim? Qamoqxonaga ovqat olib kelishga qanday jurʼat qildi?! Qadimdan gap borku, qamoqxonaga hatto shamol ham kirishi mumkin emas”. (Sh.X. 49-bob, –B. 661)

包节级喝道: “休要教他入去! 你们自与他送进去便了”

Bao Szie baqirib: “Uni ichkariga kiritma! Oʻzlaring olib borib beringlar, bas!” – dedi. (Sh.X. 49- bob, -B. 661)

当下上至主持真人, 下及道童侍从, 前迎后引, 接至三清殿上, 请将诏书, 居中供养着。

Bu yerda bir qancha rohiblar, ibodatxona boshqaruvchilari, yosh rohiblar hamrohligida markaziy ibodatxonaga kelishdi, (Xung Sin)ga imperator farmonini qurbonlik keltirish uchun shu yerga qoʻyishini soʻradilar (Sh.X.1- bob, –B.7). Ushbu misolda 主持 *zhǔchí*, 真人 *zhēnrén*, 道童 *dào tóng*, 侍从 *shìcóng* kabi kasb yoki xizmat lavozimini anglatuvchi leksemalar qoʻllangan. Bunda 主持 *zhǔchí* “boshqarish, yoʻnaltirish” maʼnolarini anglatish bilan bir qatorda kasb oti sifatida ibodatxona boshqaruvchisi maʼnosiga ham ega [1]. 真人 *zhēnrén* ushbu leksema 真 “haqiqiy” + 人 *rén* “odam” komponentlari birikishidan hosil boʻlgan haqiqiy, tirik odam maʼnosini anglatadi. Biroq, qadimgi Xitoy jamiyatida Dao falsafasi boʻyicha koinot va insoniy hayotni toʻliq anglagan, tom maʼnoda uygʻoq inson; dao rohibi maʼnolarini anglatgan [1]. 道童 *dào tóng* leksemasi tarkibidagi 道 *dào* “daosizm” maʼnosini, 童 *tóng* “bola”, “bolalik” maʼnolarini anglatib, birgalikda ibodatxonada xizmat qiluvchi quyi darajadagi rohiblar, yangi kelgan yoki yosh rohiblarni nomlaydi. 侍从 *shìcóng* ot turkumiga xos mazkur leksema imperator yoki saroy mulozimlarining oʻng-soʻlida yurib, himoya



qiladigan qo‘riqchilarni atash uchun qo‘llanadi [2]. Yuqorida keltirilgan lavozim nomi 太尉 “harbiy bosh qo‘mondon” murojaatda ham o‘zgarishsiz qo‘llangan. Masalan: 真人禀道: “太尉, 这代祖师虽在山顶, 其实道行非常, 清高自在, 倦惹凡尘, 能驾雾兴云, 踪迹不定, 未尝下山”.

Rohiblar dedi (ma‘lumot berdi): Harbiy bosh qo‘mondon, bizning bu ustozimiz (daosizm bo‘yicha oliy maqomdagi rohib) tog‘ cho‘qqisida bo‘lsa ham, uning xislatlari boshqalarga o‘xshamaydi, yuksak ma‘rifatli, borliqdagi har qanday narsaga aylana oladi, tumanni boshqarishi, bulutlarning ustida yurishi mumkin, qayerdaligi noma‘lum, tog‘dan tushmagan ( Sh.X. 1-bob, –B. 7). Mazkur misolda 太尉 “harbiy bosh qo‘mondon” leksemasi murojaat birligi sifatida qo‘llangan. “.....贫道等如常亦难得见, 怎生教人请得下来!”.

Biz (bechora) rohiblar ham ular bilan ko‘rishishga kamdan kam muvaffaq bo‘lamiz, qanday qilib ularni chaqirib kelishimiz mumkin?! (Sh.X. 1- bob, –B. 7) 道 *dào* bu misolda “daosizm rohibi” ma‘nosida, 贫 *pín* bechora, nochor ma‘nolarini anglatuvchi ushbu so‘z nutqda 道 *dào* so‘zi bilan birikib, o‘zini atash uchun qo‘llangan va kamtarlik hamda suhbatdoshga bo‘lgan hurmatni aks ettirgan. 等 *děng* morfemasi hozirgi xitoy tilida “kutmoq”, “va boshqalar” kabi ma‘nolarda qo‘llanadi, asarda ot va kishilik olmoshlarining ko‘plik shaklini hosil qilgan, yuqoridagi misolda 贫道等 “biz bechora dao rohiblari” ma‘nosini anglatgan. 董将士使个人将着书筒, 引领高俅竟到学士府内. Dun Szyan shi o‘z odamiga xatni tutqazib, Gao Syuni olimning uyiga kuzatib borishini buyurdi (Sh.X. 2- bob, –B. 18). Asardan olingan ushbu parchada 将士 *jiàngshì* va 学士 *xuéshì* so‘zlari lavozim va kasbni anglatib, bunda 将士 *jiàngshì* dastlab 将仕郎 tarzida shakllangan mansab nomi bo‘lgan, keyinchalik hech bir mansabni egallamagan, lekin badavlat shaxslarni atash uchun qo‘llangan [3]. 学士 *xuéshì* esa asarda “olim” ma‘nosini anglatgan. 将仕郎 *jiàngshì láng* Suy sulolasi davrida joriy qilingan, Tang davriga kelib, 29 - darajada bo‘lgan, biroz quyi mansabni anglatgan. Sung davrida to‘qqizinchi, Yuan davrida sakkizinchi, Ming davrida to‘qqizingchi darajadagi amaldorlarni nomlash uchun qo‘llangan, ular odatda harbiy sud yoki qo‘shinning moliyaviy hisob ishlari bilan shug‘ullangan [1]. Asarda uchragan yana bir lavozimni ifodalovchi leksema 殿帅 *diàn shuài* bo‘lib, Sung sulolasi davrida joriy qilingan, imperatorning xos soqchilari boshlig‘i, saroy mudofaasi uchun mas‘ul bo‘lgan shaxs [1]. Asarda: 后来没半年之间, 直抬举高俅做到殿帅府太尉职事。

Keyinchalik, yarim yil ham o‘tmasdan Gao Syu saroy mudofaasi qo‘shinlarining harbiy bosh qo‘mondoni lavozimiga ko‘tarildi. (Sh.X. 2- bob, –B. 21) 所有一应合属公史衙将, 都军禁军, 马步人等, 尽来参拜, 各呈手本, 开报花名. Barcha qo‘l ostidagilar, amaldor va yozuvchilar, poytaxt himoyasi, imperatorning xos qo‘shini boshliqlari, otliq, piyoda qo‘shinlar qo‘mondonlari hammasi qutlagani kelib, har biri ismlari va shaxsiy ma‘lumotlari yozilgan qog‘ozni tutqazishdi (Sh.X. 2- bob, –B. 21).



Mazkur jumladan anglashiladiki, 殿帅 *diàn shuài*ning qo‘l ostida poytaxt, imperatorning xavfsizligi uchun maxsus bo‘linma, tarixiy qaydlarni olib boradigan kotiblar boshliqlari, piyoda va otliq qo‘shinlarning qo‘mondonlari faoliyat yuritgan. Yuqoridagi misolda 手本 *shǒu běn* – amaldorning shaxsiy ma’lumotlari yozilgan hujjat (qog‘oz), odatda, yuqori turuvchi organ amaldori bilan tanishuvda taqdim etilgan [3]. 花名 *huā míng* so‘zining ma’nolarini quyidagicha keltiriladi: 1) qadimda shaxslarning qayd etilgan (ro‘yxatga olingan) rasmiy ism-sharifi; yoki faoliyat yuritadigan idora, bo‘linmada ro‘yxatga olingan ismi sharifi, masalan: harbiylar ro‘yxati; 2) ishratxonada ayollarning ishratxonadagi ismi; 3) gul nomi; 4) san’at sohasi vakillarining taxallusi (haqiqiy ismi emas) [4].

高殿帅一一点过，于内只欠一名八十万禁军教头王进……

Xos soqchilar harbiy bosh qo‘mondoni Gao birma-bir (kelganlarni ko‘zdan) o‘tkazib, ularning orasida faqat bir nafar amaldor, (ya’ni) sakkiz yuz ming askarlik maxsus qo‘shin o‘qituvchisi Van Szin yo‘qligini (payqadi)(Sh.X. 2-bob, –B. 21). Yuqoridagi gapda 殿帅府太尉 *dianshuai fu taiwei* tarzida to‘liq berilgan bo‘lsa, ushbu misolda faqat 殿帅 *diàn shuài* tarzida berilgan. Mazkur misolda yana bir kasb termini 教头 *jiàotóu* leksemasi ham qo‘llangan bo‘lib, xitoy tili izohli lug‘atida bu so‘zga quyidagi izohlar keltirilgan: Sung davrida harbiy qo‘shin va bo‘linmalarda harbiy san’ati (qilichbozlik, kurash va b.)dan saboq beruvchi shaxs, keyinchalik, har qanday sohaning sir-asrorini o‘rgatadigan muallimni ham atash uchun qo‘llangan. Hozirgi kunda ham sport sohasida murabbiyga nisbatan qo‘llanadi [2]. 当时王教头来到庄前，敲门多时，只见一个庄客出来。Ustoz Van qo‘rg‘onga yaqin kelib, darvozani bir necha bor taqillatgach, bir xizmatchi chiqib keldi. (Sh.X. 2-bob, –B. 21) Mazkur misolda 庄客 *zhuāng kè* Tang davridan iste’molga kirgan mazkur leksema feodal jamiyatda yirik zamirdorlarning yerlarida yollanma ishlaydigan yoki uni ijaraga olib foydalanadigan ishchilarga nisbatan umumiy qo‘llangan so‘z [1]. So‘z komponentlariga diqqat qilinsa, 庄 *zhuāng* bu yerda “feodal jamiyatda badavlat odamlar yoki yuqori tabaqa vakillari egalik qilgan yer” ma’nosini anglatadi [4]. 客 *kè* iyeroglifi dastlab G‘arbiy Jou sulolasiga oid metal buyumlardagi yozuvlarda aniqlangan bo‘lib, “doimiy emas”, “vaqtinchalik” ma’nolarini anglatgan, uning tub ma’nosi 主 *zhǔ* “doimiy, asosiy” ma’nolarini anglatuvchi so‘ziga zid qo‘yilgan [4]. 客 *kè* so‘zining ya na boshqa qator ma’nolari mavjud bo‘lib, ularning aksari uning tub ma’nosidan kelib chiqadi. Ushbu ikki iyeroglif asarda ham kasb yoki lavozim leksikasi hosil qilishda qo‘shma so‘zning komponenti sifatida antonimik munosabatdagi birliklar sifatida ko‘rinadi. Masalan: 庄客道：“既是如此，且等一等，待我去问庄主太公，肯时，但歇不妨”

Xizmatchi dedi: “Modomiki, shunday ekan, men borib (yer egasi) xo‘jayindan so‘ray, ruxsat bersalar, kirib dam olishingiz mumkin”. (Sh.X. 2-bob, –B.25). Bu misolda 庄客 “yerda ishlovchi xizmatchi”, yoki “ijarachi” ma’nosini anglatga, 庄主



“yer egasi”, “zodagon”ni ifodalaydi, istilohlar oʻrtasidagi antonimik munosabat, ularning tarkibidagi ikkinchi komponent 客 *kè* va 主 *zhǔ* oʻrtasidagi zid maʼno hisobiga yuzaga chiqqan. 庄主 soʻzidan keyin qoʻllangan 太公 leksemasiga quyidagicha izoh beriladi: 1) otani atash, murojaat soʻz; 2) boboni atash uchun qoʻllanuvchi soʻz; 3) yoshi ulugʻ insonga nisbatan murojaat soʻz (hurmat maʼnosida); 4) oʻtgan ajdodlarni atashda qoʻllanadi [4]. 太公 *tàigōng* leksemasi komponentlar maʼnosiga qaralsa, 太 *tài* iyeroglifi 大 *dà* iyeroglifidan shakl oʻzgartirish, oʻzlashtirish natijasida hosil boʻlgan va “katta, ulugʻ” maʼnolari unda saqlangan, 公 *gōng* erkak, asosan, katta yoshdagi erkak kishini anglatgan. Ikki komponentning birikishi bu oʻrinda yoshi ulugʻ erkak kishiga nisbatan hurmat maʼnosida atash, murojaat qilish uchun qoʻllanadigan soʻzni shakllantirgan.

Ayrim hollarda uyushma, tashkilot nomi kasbni anglatuvchi leksema sifatida qoʻllangan. Masalan: 俺道是甚么高殿帅，却原来正是东京帮闲的圆社高二。

Qaysi harbiy bosh qoʻmondon Gao ekan debman, u oʻsha Sharqiy poytaxtdagi bekorchi toʻpurar Gao Er ekanda (Sh.X. 2-bob, –B. 22). Bu oʻrinda 圆社 *yuán shè* Sung davrida toʻp oʻynaydiganlar jamoasi; jamoadagi oʻyinchi “Shuyxu juan” asarida ilk qoʻllanishi kuzatiladi [4]. Yuqoridagi jumlada esa, ayni jamoadagi toʻpurar oʻyinchini ifodalagan.

Asarda qarindosh-urugʻlarni atash, ularga murojaatda qoʻllanadigan terminlar ham salmoqli oʻrin egallaydi, bunday terminlarning yozma nutq, standart tildagi shakli ham, ogʻzaki soʻzlashuv nutqi yoki ayrim shevalarga xos variantlari ham qoʻllanib, ular baʼzan turli qahramonlar tilida, baʼzan bir qahramonning nutqida turlicha variantlarda qoʻllangan. Masalan: 且说这王进却无妻子，止有一个老母，年已六旬之上。 Van Szinning ayoli yoʻq edi, uning faqat keksa onasi boʻlib, yoshi oltmishlardan oshgandi (Sh.X. 2-bob, –B. 25). Mazkur gapda “ona” maʼnosi 母 *mǔ* soʻzi bilan ifodalangan. Mazkur maʼno anglatuvchi leksemalar ichida 母 *mǔ* eng qadimgi boʻlib, piktogramma hisoblanadi. Shu bilan birga, 母 *mǔ* meʼyoriy tilga xos leksik birlik hamdir. 六旬 *liù xún* birikmadagi 六 *liù* “olti” va 旬 *xún* aslida “oʻntalik, oʻn kunlik, dekada” maʼnolarini anglatadi, yoshga nisbatan qoʻllanganda esa har “oʻn yillik”ni ifodalaydi, shu bois 六旬 *liù xún* “oltmish yosh” demakdir. 对娘说知此事，母子二人抱头而哭。

Onasiga boʻlgan voqeani aytgach, ona bola ikkovlon boshini changgalab yigʻlashibdi (Sh.X. 2-bob, –B. 23). Ushbu gapda 娘 *niáng* “ona” leksemasi ishlatilib, mazkur iyeroglif toshbaqa kosolari va hayvon suyaklaridagi bitiglardayoq qoʻllangan va fonoideogramma hisoblanadi. Dastlab, “ayol”, “yosh qiz” maʼnolariga ega boʻlgan, Tang davridan keyin “ona” maʼnosida qoʻllana boshlagan. Shuningdek, mazkur leksemaning yoshi katta ayollarga murojaat soʻz sifatida qoʻllangan, “imperator joriyasi”, “xotin”, “rafiqa” maʼnolarini ham anglatgan [1]. Hozirgi xitoy tilida adabiy



me'yor hisoblanmaydi, biroq ayrim shevalarda hamon qo'llanishda. Bundan tashqari, qo'shma so'z tarkibida kelib, "qiz bola" ma'nosini ham anglatadi. Masalan: 姑娘 *gūniáng*. 娘儿两个商议定了。Ona bola ikkovlon gapni (maslahatni) pishirishibdi (Sh.X. 2-bob, –B. 23). "Ona bola ikkovlon" birikmasi asarning bir sahifasida ikki xil: 母子二人 *mǔzǐ èr rén* va 娘儿两个 *niáng er liǎng gè* tarzida bayon qilingan. Birinchi shaklga qaralsa unda 母 va 子 "ona" va "bola" yoki "o'g'il" birliklari me'yoriy til venyanga xos leksemalar sanaladi. Keyinchalik, 子 *zǐ* "bola" yoki "o'g'il" ning mustaqil ma'nosi yo'qolgan. 母 *mǔ* esa yakka holda qo'llanmay qo'ygan. Bundan tashqari "ikkalasi", ya'ni "ikki odam" birikmasi ham 二 *èr* "ikki" (dona son) va 人 *rén* "odam" so'zlari vositasida ifodalangan. Bu o'rinda hisob so'z va ot bir leksema, ya'ni 人 *rén* "odam" vositasida berilgan. Ma'lumki, venyanda alohida hisob so'zlar kam, ular aksar hollarda ot yoki boshqa mustaqil so'z turkumlari yordamida ifodalangan. Ikkinchi birikmada esa, aksincha, 娘 "ona" va 儿 "o'g'il", 娘 so'zi bugungi kunda ham shevalarda yakka holda qo'llanadi. Og'zaki so'zlashuv uslubiga xos leksema. 儿 "o'g'il" ma'nosida nisbatan keyingi davrlarda qo'llana boshlagan, hozirgi xitoy tilida "o'g'il" 儿子 *erzi* deyiladi. "Son+hisob so'z" birikmasi ham aynan ikkinchi jumlada hozirgi xitoy tilidagi variantda berilgan, o'zidan keyin hisob so'zi kelganda 二 *èr* "ikki" soni 两 *liǎng*ga o'zgarishi hozirgi me'yoriy grammatikalardan ma'lum. Sondan keyin 个 *gè* hisob so'zining qo'llanishi ham yuqoridagi fikrimizning yana bir karra isbotidir. "Ona" va "o'g'il" ma'nosidagi leksemalarning qo'llanishida yana quyidagi jihatlarni ko'rish mumkin.

娘道：“我儿三十六<sup>1</sup>着，走为上着。只恐没处走” Ona dedi: “O'g'lim, o'ttiz olti strategiyadan ham biri qochishdir. Biroq qochib boradigan yerimiz yo'q deb xavotirdaman” (Sh.X. 2-bob, –B. 23). “Ona dedi” birikmasi ayni sahifada quyidagicha ham berilgan: 其母又道：“我儿，和你要私走，只恐门前两个牌军……”Uning onasi yana dedi: O'g'lim, sen bilan ketay desam eshik oldidagi ikki qo'riqchidan qo'rqaman... (Sh.X. 2-bob, –B. 23). Bu misolda “ona” so'zi 母 vositasida berilgan va undan oldin uchinchi shaxs kishilik olmoshi qo'llangan. 娘 leksemasidan oldin kishilik olmoshi qo'llanmasa ham kontekstdan gap Van Szinning onasi haqida borayotgani anglashiladi. Yana bir misolda 王进道：“母亲放心，儿子自有道理措置他”

Van Szin dedi: “Ona(m) xavotirlanmang, o'g'lingizning unga nisbatan o'ylab qo'ygan rejasi bor” (Sh.X. 2- bob, –B. 23). Mazkur gapda “ona” va “o'g'il” ma'noli leksemalar hozirgi xitoy adabiy tilida me'yor hisoblanuvchi 母亲 va 儿子 so'zlari vositasida ifodalanadi. Asarda “ota” ma'nosi quyidagi so'zlar bilan ifodalangan. 高俅喝道：“这厮！你爷是街市上使花棒卖药的，你省的什么武艺！”

<sup>1</sup> Bu yerda 《孙子兵法》dagi o'ttiz olti jang strategiyasiga ishora qilinmoqda.



“Gao Syu baqirib dedi: “Sen yaramas! Otang bozorda dorilarni sotish uchun tayyoq o‘ynatardi, senda qanday harbiy san‘at bo‘lishi mumkin?!” (Sh.X. 2- bob, –B. 22). 爷 *yé* so‘ziga leksikografik manbalarda quyidagi ta‘rif beriladi: 1) bobo; bobokalon butun Xitoy bo‘ylab shunday ma‘noda qo‘llanadi; 2) ayrim shevalarda ota yoki otaga tengdosh insonga nisbatan ishlatiladi. Ushbu parchada leksema “ota” ma‘nosida qo‘llangan va bu keyingi misolda yanada oydinlashgan. 比现时曾学使棒，被我父亲一棒打翻，三四个月将息不起，有此之仇。 Oldinlari qilichbozlikni o‘rganayotganda otam uni yerga chunonan ag‘darganki uch to‘rt oy o‘ziga kelolmagan, unda shuni alami qolgan (Sh.X. 2- bob, –B. 22). Bu misolda Van Szin o‘zining otasi haqida so‘zlab turib, 父亲 *fuqin* so‘zini qo‘llaydi. Mazkur leksema hozirgi xitoy tilida 母亲 *muqin* so‘zi kabi adabiy me‘yor hisoblanadi. Yuqoridagi misolda ham gap Van Szingning otasi haqida borganidan kelib chiqadigan bo‘lsak, 爷 *yé* leksemasining “ota” ma‘nosida qo‘llangani yana bir karra isbotini topadi. 那后生那里肯拜，心中越怒，道：“阿爹休听这厮胡说！若吃他赢得我这条棒时，我便拜他为师”。

U yigitcha qayerdanam unga hurmat ko‘rsatsin, uning qalbida g‘azab borgan sari avj olardi, (shu asnoda) dedi: “Ota(m) bu muttahamning gaplariga quloq solmang! Bordi-yu, u meni shu kurashda yenga olsa, shundagina men unga hurmat ko‘rsatib, ustoz, deb tan olaman” (Sh.X. 2- bob, –B. 27). Ushbu nutq egasi 18–19 yoshlardagi yigit, qolaversa, u yashaydigan yer Yan An uezdiga yaqin joy. Ushbu misolda “ota” leksemasi 阿爹 *ā diē* so‘zi vositasida berilgan. Asarda 阿 *ā* old qo‘shimchasi ishtirokidagi bir qancha leksemalar uchraydi, xususan: 阿公 *ā gōng* yoshi ulug‘ erkak kishiga nisbatan hurmat ma‘nosidagi murojaat so‘z. Masalan: (宋江) 便起身道：“阿公（卖汤药的王公）休怪”

(Sun Szyan) gavdasini ko‘tarib dedi: “Amaki (dori sotuvchi keksa kishi), bekorga ayblamang” (Sh.X. 21-bob). 阿叔 *ā shū* qaynini, turmush o‘rtoq (er)ning ukasi. “阿叔，你且来厨下和你说话”

“Qaynim, oshxonaga keling, gaplashib olaylik” (Sh.X. 17-bob). 阿哥 *ā gē* qondosh ukaning akaga nisbatan murojaati bilan bir qatorda, qondosh bo‘lmaganlarga nisbatan ham qo‘llanib, yaqinlikni bildiradi. Masalan: 鲁提辖道：“阿哥，你莫不是史家村甚么九纹龙史大郎？”

Harbiy boshqarma boshlig‘i Lu dedi: “Aka, siz o‘sha Shijya qishlog‘idagi to‘qqiz ajdar rasmi solingan bahodir Shi emasmisiz?” (Sh.X. 3-bob) 阿婆 *ā pó* odatda yoshi katta juftliklar nutqida qo‘llanib, erning ayolini atash yoki murojaatda ishlatiladi. 阿舅 *ā jiù* tog‘a yoki ayolining og‘a-inisini atash uchun qo‘llangan [5].

大哥 *dage* (so‘zma-so‘z katta aka) ayol turmush o‘rtog‘iga murojaat so‘zi. “...大哥，少饮早归” “... Dage (xo‘jayin), kamroq ichib ertaroq qaying” (Sh.X. 7-bob); mazkur leksema erkak kishi nutqida erkak kishiga nisbatan qo‘llangan, bunda u “aka”



ma'nosini anglatib, shaxsga bo'lgan hurmatni bildirgan. Masalan: 王进又道：“大哥方便”

Van Jin yana dedi: “Aka, bemalol (ya'ni, o'zingizga ma'qulini qilavering)” (Sh.X. 2-bob, –B. 23). Ayoliga nisbatan 大姐 *da jie* (komponentlardan kelib tarjima qilinsa “katta opa” ma'nosini anglatadi) leksemasi ham qo'llangan. Masalan: 李小二应了, 自来门首叫老婆道：“大姐, 这两个人来的不尴尬”。 Li Syao'er rozi bo'ldi, eshikdan chiqib xotinini chaqirdi: “Xotin (so'zma-so'z: katta opa), bu ikkalasida bir gap borgan o'xshaydi (yaxshi odamlarmasov)” (Sh.X. 10-bob, –B. 135). Keltirilgan bu misolda kishi rafiqasini ifodalovchi ikki so'z qo'llangan. Birinchisi, 老婆 so'zi o'zbek tilidagi “kampir” so'zining muqobili deyish mumkin, ya'ni kishining ayoliga nisbatan qo'llanishiga mos keladi. Misolda 老婆 ayolini atash uchun qo'llangan bo'lsa, ayni ma'noda murojaat birligi sifatida 大姐 so'zi ham qo'llangan. Bundan tashqari, asarda erning ayoliga murojaatda 大嫂 *dasao* (so'zma-so'z: katta kelinoyi), 底老 *dilao* (so'zma-so'z: pastki (quyi)+ qariya) shuningdek, ayolning turmush o'rtog'iga nisbatan 盖老 *gailao* (so'zma-so'z: tom (ustki) + qariya) so'zlari qo'llangan. Umuman, 大 *da* komponentli murojaat so'zlar biroz mubolag'a va hurmat ma'nolarini anglatadi, 老 *lao* komponentli birliklar erkalash ma'nolariga ega hisoblanadi.

## XULOSA.

Ushbu maqola O'rta Xitoy tili leksik tizimining muhim namunasi bo'lgan 《水浒传》 (“Suv qirg'og'i”) romanidagi murojaat leksemalarini lingvopragmatik va diaxronik aspektda tadqiq etadi. Komponent, tarixiy-qiyosiy va tavsifiy metodologiya asosida asardagi murojaat shakllarining morfologik, leksik va funksional-grammatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Bu tahlil tilning madaniy qatlamlari hamda ijtimoiy-tarixiy omillar bilan o'zaro aloqasini yoritib beradi. Tadqiqot natijalari murojaat leksemalarining semantik-funksional tasnifini taklif etadi, ularni ijtimoiy mavqe/lavozim, qarindoshlik va notanish shaxslarga nisbatan qo'llanishiga ko'ra guruhlariga ajratadi. Xususan, 太尉 (*tai wei*) kabi lavozim nomlarining ijtimoiy stratifikatsiyani aks ettirishi, 赍擎 (*ji qing*), 御书 (*yu shu*), 丹诏 (*dān zhào*) kabi yozma nutqqa xos leksemalar orqali muallif bayonidagi uslubiy registrlarning differentsiatsiyasi ko'rsatiladi.

Maqolada romanning dialogik qismlarida 吃 (*chi*) fe'lining “yemoq” va “ichmoq” ma'nolarida umumiy qo'llanilishi hamda 喝 (*he*) fe'lining hozirgi zamon “ichmoq” ma'nosidan farqli o'laroq, “baland ovozda gapirmoq” ma'nosida ishlatilishi kabi leksik-semantik o'zgarishlar tahlil qilingan. Bu esa, Xitoy tilining diaxronik dinamikasi va leksemalarning kontekstual polisemiya yorqin namoyish etadi.



Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot 《水浒传》 ning Xitoy adabiy tilining (xususan, 文言 (wényán), 白话 (báihuà) va dialektal variantlarning sinxron sintezi orqali Putonghuaga ko‘prik vazifasini o‘tashdagi fundamental ahamiyatini asoslab beradi.

## ANDROSENTRIZMNING TIL SATHLARIDA VOQELANISHI

**SHOXISTAXON SHAMSIYEVA**

*Dotsent, PhD, TDSHU*

ORCID: 0000-0001-5734-9957

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘zbek tilida androsentrizm belgilarining leksik-semantik darajada, murojaat shakllarida hamda sintaktik birliklarda ifodalanishi tadqiq etilgan. Til sathlarida yuzaga chiqadigan androsentrizmning patriarxal tizimning lisoniy tasviridan kelib chiqishi ochib berilgan. Shuningdek, androsentrik xususiyatlarning tilda ifodalanishidagi ijtimoiy, madaniy hamda diniy omillari ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** androsentrizm, gender, erkak, ayol, til sathlari, til birliklari patriarxal.

**Аннотация:** В данной статье исследуется выражение признаков андроцентризма в узбекском языке на лексико-семантическом уровне, в формах обращения, а также в синтаксических единицах. Раскрывается обусловленность проявлений андроцентризма на различных языковых уровнях лингвистической репрезентацией патриархальной системы. Кроме того, показаны социальные, культурные и религиозные факторы, влияющие на выражение андроцентрических характеристик в языке.

**Ключевые слова:** андроцентризм, гендер, мужчина, женщина, уровни языка, языковые единицы, патриархальный строй.

**Abstract:** This article examines the manifestation of androcentrism in the Uzbek language at the lexical-semantic level, in forms of address, and in syntactic units. It reveals that androcentric features emerging across different levels of language stem from the linguistic representation of a patriarchal system. Furthermore, the study identifies the social, cultural, and religious factors influencing the expression of androcentric characteristics in language.

**Keywords:** androcentrism, gender, man, woman, language levels, linguistic units, patriarchal system.

**KIRISH.** Inson ikki qarama-qarshilik – erkak va ayol sifatida gavdalanadi. “Erkak – ayol” ziddiyati insoniyat madaniyatining poydevorini tashkil qiladi. Dunyo haqidagi qadimiy tasavvurlarda kalom, ruh – butun borliqning otasi,



materiya – ona bo‘lib, ularning qo‘shilishi natijasida olam va undagi barcha mavjudotlar vujudga kelgan.

Klassik madaniyat va falsafada ayol erkakka nisbatan qarama-qarshi qo‘yilgan: ayol – genofondni saqlash, hayotni qayta yaratish, naslni davom ettirishdek tabiatdagi eng qimmatli xususiyatga ega. U an’anaviy qadriyatlarini qayta yaratib, hamjamiyat hayotini saqlash vazifasini bajaradi. Shunga qaramay, ayol jamiyatda irratsionallik (Aristotel), axloqsizlik (Shopenhauer), hissiyotlilik (Kant), bir qator qusurlar (Freyd) va h.k.ni assotsiatsiyalab kelgan<sup>1</sup>.

Qadimgi Xitoy falsafasining asosiy kosmologik tamoyiliga ko‘ra, butun olamdagi barcha jarayon va hodisalar ikki qarama-qarshi: “in” bilan “yan” qutblariga ajratilib talqin qilingan. Ular quyidagi qarama-qarshiliklardan iborat:

1) “in” qutbi: ayollik tamoyili, yer, qorong‘ulik, sovuqlik, namlik, qabul qiluvchi, ichki kuch;

2) “yan” qutbi: erkaklik tamoyili esa osmon, yorug‘lik, issiqlik, quruqlik, beruvchi, tashqi kuch.

Gender rollar, odatda, ayollar va erkaklar o‘rtasidagi tabiiy farqlarni keltirib o‘tish orqali tushuntiriladi. Jinslar o‘rtasidagi farqlar munozarali masala bo‘lib, bu xusudsa qarama-qarshi qarashlar mavjud. Birinchisi, biologik determinizm tarafdorlari bo‘lib, ularning taxminicha, biologik jins va gender o‘rtasida chambarchas bog‘liqlik mavjud<sup>2</sup>. Xususan, gender kod mavjud bo‘lib, u madaniyat va erkak-ayol jinsi vakillarining o‘ziga xos farqli diskursiga asoslangan muayyan xulq-atvor namunasini aks ettiradi<sup>3</sup>. Ijtimoiy konstruktivizm tarafdorlari gender farqlari jamiyat tomonidan yaratiladi, deb hisoblashadi.

Gender farqlarning tarafdorlari hozirgi kunda stereotipik qarashga aylangan ma’lumotlarga ishora qiladilar. Masalan, erkaklarning ko‘proq aniq fanlarga moyil bo‘lishlari, ayollarga nisbatan keng mushohada yuritishlari, ayollarga qaraganda tajovuzkorroq bo‘lishlari, ayollar esa hissiyotliroq, badiiy tasavvurga ko‘proq ega bo‘lishlari va h.k.<sup>4</sup>. Erkaklarga jasorat, mustaqillik, kuch va hokimiyatga intilish xosdir, ayollar esa muloyim, qaram, xayolparast, hissiy, itoatkor va zaifa sifatida tavsiflanadi<sup>5</sup>.

<sup>1</sup> Usmanova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – B. 213-214.

<sup>2</sup> Есенова Т.С., Есенова Г.Б., Горяева В.В., Харчевникова Р.П. Андроцентризм гендерных стереотипов (на примере паремии) // Вестник Калмыцкого университета. 2017. № 34 (2). – С. 86.

<sup>3</sup> Плотникова С.Н., Копылова Н.В. Гендерный код жанра: мужские тактики уничтожения лица женщины в беседе // Жанры речи. 2009. № 6. – С. 409.

<sup>4</sup> Hyde J. S., Linn M. C. Gender differences in verbal ability: A meta-analysis // Psychological bulletin. - 1988. - Т. 104. № 1.

<sup>5</sup> Есенова Г.Б., Харчевникова Р.П., Есенова Т.С. Гендерный аспект картины мира калмыков (на материале паремий) // Вестник Бурятского университета. 2016. № 1. – С. 9.



Gender lingvistikasini yangi ilmiy yoʻnalish sifatida shakllantirish doirasida, avval boshdan ingliz tili lingvistikasida grammatik jins koʻrsatkichi sifatida qoʻllanilgan “gender” tushunchasiga tayangan holda falsafiy, ijtimoiy va madaniy, psixologik aspektlarda tilning feministik jihatdan tanqid qilinishi mazkur tushunchaning boyitilishiga, jins kategoriyasi bilan belgilanadigan va uning insonlar oʻrtasidagi aloqalarga koʻchiriladigan individning biologik tavsifidan ajratib olinishiga yordam berdi<sup>1</sup>. Mazkur bosqichda “gender” biologik determinizmni yoʻqqa chiqaradigan va jinslar oʻrtasidagi munosabatlarning ijtimoiy xarakteriga urgʻu beriladigan alternativ tushunchaga aylanadi, individning biologik xususiyatlariga bogʻliq xulqini uning ijtimoiy vazifalari va kutilgan natijalari bilan bogʻlaydi, oʻz navbatida, ayollarning oʻrni tahlilidan bevosita gender tizimi tahliliga oʻtish gender tadqiqotlarini yangi ilmiy fanlararo yoʻnalish sifatida rasmiylashtirish jarayonini boshlab beradi<sup>2</sup>.

Koʻrinadiki, soʻnggi yillarda amalga oshirilgan ilgʻor gender tadqiqotlarida gender farqlarining yengib boʻlmashligi haqida emas, balki madaniy va tarixiy anʼanalar taʼsirida shakllantirilgan gender stereotiplarga bogʻliqligi haqida gapirish kerak degan fikr paydo boʻldi. Shunday qilib, koʻplab zamonaviy jamiyatlarda keng tarqalgan gender stereotiplari, ayollarga passivlik, qaramlik, hissiyotlilik va gʻamxoʻrlik kabi fazilatlarni bogʻlaydi va ayollarning qatʼiyatlilik va tajovuzkorlik koʻrsatishini qoralaydi, jamiyatlarda oʻrnatilgan gender rollarini, xususan, gender tengsizligini saqlab qolishga xizmat qiladi. Gender stereotiplari androsentrizmni kuchaytiradi<sup>3</sup>.

Androsentrizm – (yunon tilidagi “andro” soʻzidan – inson, erkak) bu erkaklarni hayotning barcha jabhalarida markaziy deb hisoblaydigan dunyoqarashdir. Bu nafaqat dunyoga erkak koʻzi bilan qarash, balki erkaklarning meʼyoriy qarashlari va hayotiy modellarini umumiy ijtimoiy meʼyorlar va hayotiy modellari sifatida taqdim etishdir. Androsentrik jamiyatda erkaklar tajribasi va qarashlari standart hisoblanadi, ayollar esa boʻysunuvchi rollarga tushiriladi, bu esa ularning koʻrinmasligiga olib keladi. Oddiy qilib aytganda, bu dunyoga erkak nigohi bilan qarash va bu uni idrok etishning yagona yoʻli ekanligiga ishonishni anglatadi.

Amerikalik feminist ayol va sotsiolog Sharlotta Perkins Gilman ilk marotaba androsentrizm tushunchasini 1911-yili nashr qilingan “Erkaklar tomonidan yaratilgan dunyo yoki bizning androsentrik madaniyatimiz” asarida tavsiflagan.

**ASOSIY QISM.** Gender tilshunoslikda androsentrizm til dunyoqarashni erkak nuqtayi nazaridan aks ettiradi, shuning uchun u nafaqat antroposentrik

<sup>1</sup> Большая Российская Энциклопедия, <https://bigenc.ru/sociology/text/2349798>.

<sup>2</sup> Кириллина А.В., [http://www.ahmerov.com/book\\_1030\\_chapter\\_21\\_1.3.2\\_Feministskaya\\_lingvistika.html](http://www.ahmerov.com/book_1030_chapter_21_1.3.2_Feministskaya_lingvistika.html).

<sup>3</sup> Hyde J.S. The Gender Similarities Hypothesis // American Psychologist. - 2005. -Т. 60. № 6.



(insonga yo‘naltirilgan), balki androsentrik (erkaklarga yo‘naltirilgan) hodisa deb tavsiflanadi. Binobarin, til erkak subyekti nuqtayi nazaridan olam manzarasini yaratadi, bu yerda ayollik asosan rolda namoyon bo‘ladi yoki umuman e‘tiborga olinmaydi. Bu o‘rinda nutq subyekti sifatida erkakning ustunligi, til birliklarining qo‘llanilishida erkak tajribasining me‘yor sifatida qabul qilinishiga e‘tibor qaratiladi.

Androtsentrizm ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida, asosan, patriarxal jamiyatlarda shakllanadi. Til esa, o‘z navbatida, androsentrik qurilmani saqlaydi va uni qaytadan ishlab, yangi shakllar bilan ta‘minlab turadi.

Genderga xoslangan mulqotning xususiyatlariga ko‘pincha til androsentrikligining namoyon bo‘lishi sifatida qaraladi. Biroq bu ikki tushunchani farqlash juda muhimdir. Androtsentrizm tilning tuzilishi bilan bog‘liq hodisa bo‘lib, bu strukturaviy xususiyatlarning inson ongiga ta‘sirini ifodalaydi. Shu bilan birga, erkak va ayol nutqi orasidagi farqlar an‘anaviy ravishda til tizimiga kirmaydigan ohang va tembr kabi paralingvistik ifoda vositalarini ham o‘z ichiga oladi. Tilni androsentrik jihatdan ta‘riflash orqali biz til tizimidagi gender nomutanosibliqi haqida gapirishimiz mumkin, gender farqlari esa nutqni tavsiflaydi.

Androtsentrizm hodisasi tilning barcha sathlarida, jumladan, so‘z yasaliishi, sintaktik moslashuv, semantik xususiyatlar, ayrim til birliklarining qo‘llanilish chastotasi va boshqalarda namoyon bo‘ladi.

A.V. Kirilining fikricha, androsentrizm darajasi turli tillarda farq qiladi, deb ishonishga asos bor. Til androsentrizmi tilning jamiyatning ijtimoiy va madaniy xususiyatlari, jumladan, erkaklar hukmronligi, erkaklarga berilgan yuksak qadriyat va xususi soha bilan cheklangan ayollar faoliyatini aks ettirishi bilan bog‘liq<sup>1</sup>. Shuningdek, A.V. Kirilining “Gender: lingvistik jihatlar” nomli monografiyasida feministik lingvistika nuqtayi nazaridan androsentrizmning quyidagi belgilari ajratib ko‘rsatilgan:

1. “Erkak” va “inson” tushunchalarining muvofiqlashtirish.
2. Ayol jinsiga oid so‘zlarning salbiy baholanishi. Ayolga nisbatan erkaklarga oid atamalar qo‘llanilganda uning maqomi sezilarli darajada oshadi. Bunda ayol jinsidagi otlar erkak jinsidagi otlardan yasaladi.
3. Tilda har qanday jinsdagi shaxslarni, shuningdek, turli jins vakillaridan iborat guruhlarni ifodalashda erkak jinsidagi shakllarga ustuvorlik beriladi.
4. Sintaktik moslashuv referentning haqiqiy jinsiga emas, balki tegishli so‘z turkumining grammatik jins shakliga ko‘ra amalga oshadi.

<sup>1</sup> Кирилина А. В. Лингвистическая гендерология // Словарь гендерных терминов / Под ред. А. А. Денисовой / – М., 2002. – С. 29-30.

5. Maskulinlik va feminlik aniq chegaralanib, ular miqdor va sifat jihatdan bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi. Bu esa gender asimmetriyalarning yuzaga kelishiga olib keladi<sup>1</sup>.

O'zbek lingvomadaniyatida ham androsentrizmning quyidagi ayrim belgilarini ajratib ko'rsatish mumkin:

### 1. "Erkak" va "inson" tushunchalarining muvofiqlashtirish

Har bir madaniyatda erkaklik va ayollik haqida o'ziga xos tasavvurlar mavjud. Ushbu stereotipik tasavvurlarning tuzilishi va mazmuni nafaqat etnomadaniy o'ziga xoslikka, balki madaniy an'analar, tegishli jamiyatning tarixiy rivojlanish bosqichlari, uning urbanizatsiya darajasi, dini va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

Har bir jamiyat va madaniyatda erkak va ayollarning jinsiga ko'ra turli xil rollari mavjud bo'ladi. "Erkak bo'lish" ma'lum bir ijtimoiy rol, "ayol bo'lish" boshqa bir ijtimoiy rol o'ynashni anglatadi. Jins xususiyatiga ko'ra belgilanadigan mazkur ijtimoiy rollar erkaklar va ayollar ma'lum bir jamiyat va madaniyat me'yorlariga muvofiq qanday harakat qilishlarini belgilaydigan qoidalardir. Bundan tashqari, har bir madaniyat ma'lum bir jinsga mos keladigan u yoki bu xarakterli xususiyatlarni belgilaydi<sup>2</sup>.

O'zbek jamiyatida erkak va ayol vazifalarining taqsimlanishi aksariyat hollarda ayollarning tobeligi va erkaklarning hukmronligi ziddiyati bilan baholanib, bu o'zbekcha turmush tarzi me'yori sifatida taqdim etiladi. "Jamiyatda erkaklarning huquqi ko'proq, ular oila va jamiyatda ham bosh rolni egallagan, ayollar ularga nisbatan kichikroq va past mansablarni egallashgan hamda erkaklarga moddiy jihatdan qaram" degan fikrlarni tez-tez uchratish mumkin. Bunday stereotipik fikrning shakllanishi aslida "jamiyatning yacheykasi" sanalgan oiladan boshlanadi. Chunonchi, o'zbek oilalarida o'gil farzandning dunyoga kelishi katta xursandchilik bilan kutib olinadi. O'gil farzandning alohida e'tibor berilib, unga nasl va sulolaning davomchisi, oilaning tayanchi, tirgovich sifatida qaraladi. Fikrimizni quyidagi misol vositasida quvvatlash mumkin:

*– Xotin, o'gil bolani urib bo'lmaydi. O'gil bola xudoning bir inoyati. Arabistonning allaqaysi viloyatida o'gil bola tug'ilgan kuni podshoning maxsus farmoni bilan ertalabgacha to'p otilarkan. Hindistonning allaqaysi bir yurtida o'gil tuqqan xotin bir kuni kechgacha podshoning taxtida bola emizib o'tirarkan. Missisuri degan yurtda o'gil bola tug'ilsa podshoning xotini sarpo qilib borib, tuqqan xotinni o'z kajavasida shahar aylantirarkan. Ko'rdingmi, o'gil bola*

<sup>1</sup> Кирилина А.В. Гендер: Лингвистические аспекты. – М.: Изд-во Ин-та социологии РАН, 1999. – 189 с.

<sup>2</sup> Белая Н.В. Гендер как фактор социальных отношений в английской, американской и русской лингвокультурах: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2009. – С. 63.

qanaqa...<sup>1</sup>.

O'zbek jamiyati va madaniyatidagi yuqorida qayd etilgan androsentrik qarashlar, tabiiyki, tilda u yoki bu shaklda o'z aksini topadi. O'zbek tilida leksik-semantik darajadagi androsentrizm quyidagi darajalarda namoyon bo'ladi:

- 1) umumlashtiruvchi erkak obrazini ifodalovchi lisoniy birliklar;
- 2) aksiologik munosabatni bildiruvchi lisoniy birliklar.

### 1) Umumlashtiruvchi erkak obrazini ifodalovchi lisoniy birliklar

O'zbek tilida *odam, inson, kishi, farzand, bola, oila boshi, oila kattasi* va h.k. neytral birliklar ko'pincha umumlashtiruvchi erkak obraziga xoslangan bo'ladi. Quyidagi misollarga e'tibor qaratamiz:

– *E-e! Oyim urishib beradilar, inson! Qorong'ida Alvasti ko'prikdan qandoq o'tadilar? O'zingiz oborib qo'yasizmi?*

– *Senam borsang, oborib qo'yaman! – Kimsan akam iljayib chillakini uzatdi. – Qani, och savatingni!*<sup>2</sup>

*Eh insono'g'li.. Yo'qsilga sadaqa berish uchun hamyoningdagi eng keraksiz pulni qidirasan, qo'lingni ko'kka ko'tarib esa jannatdan ko'shk so'raysan.*

*Nihoyat guzarga yetib keldik. Choyxonada odam yo'q hisob, eski namat tashlangan so'rida bir chol oftobda mudrab o'tiribdi, yonida tumshug'i chegalangan choynak, sopol piyola...*<sup>3</sup>.

O'zbek tilida *inson, insono'g'li.., odam* so'zlari semantik jihatdan umumiylikni anglatsa-da, yuqorida qayd etilgan jumalalarda mazkur leksemalar orqali erkak subyekti ifodalanganini payqash mumkin.

O'zbek tilida *kishi* so'zining uning sinonimlari bo'lgan *inson* va *odam* so'zlariga nisbatan ma'no qamrovi keng bo'lib, uning ayniqsa, erkak obrazini jonlantirishdagi faolligi kuzatiladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *kishi* so'zi quyidagi ma'nolarni aglatadi: 1) fikrlash, so'zlash hamda ijtimoiy mehnat jarayonida qurol yasash va undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lgan jonli mavjudot, zot; *odam, inson*; 2) insoniyatga mansub zot, shaxs, *odam*; 3) umuman, balog'at yoshidan o'tgan shaxs; katta yoshli *odam*; 4) o'zga, begona shaxs, *birov*; 5) shariatga binoan, balog'atga yetgan xotin-qizlar yuzini, o'zini ko'rsatmasligi kerak bo'lgan begona erkak<sup>4</sup>.

Ko'rinadiki, *kishi* so'zining semantik maydonida *inson* va *odam* so'zlarida uchramaydigan "umuman erkak" yoki "begona erkak" ma'nolari mavjud bo'lib, mazkur ma'nolar undagi androsentrik assotsiatsiyani yuzaga keltirishga xizmat

<sup>1</sup> Саид Аҳмад. Уфк. Трилогия. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – Б. 95.

<sup>2</sup> Ҳошимов Ў. Икки эшик ораси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б. 116.

<sup>3</sup> Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B. 47.

<sup>4</sup> Ўзбек тилининг изоҳли лугати. А. Мадвалиев таҳрири остида. 5-жилдли. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 380.

qiladi. Misollarga murojaat qilamiz:

*Munavvar aytganku, «oyim u kishini taniydilar, yaxshi ko'radilar», degan-ku. No'g'ayqo'rg'onda yonma-yon ko'chada turishgan ekan<sup>1</sup>.*

Ushbu jumladagi **u kishi** erkak kishiga nisbatan, aniqrog'i, yaqin, tanish bo'lgan erkakning shaxsini aniqlashtirish uchun ishlatilgan.

Yoki xotin-qizlarga nisbatan qo'llaniladigan **kishidan qochmoq** iborasi "begona erkakka o'zini ko'rsatmaslik" ma'nosini anglatadi.

Aytilganlar bilan birga, o'zbek ayollari eriga yoki sevgan erkagiga nisbatan **bu kishim** birligidan ham keng foydalanadi. Masalan:

*– Robiya! – u bilagimni battar qisdi. – Rostini ayt. Ochil aka nega xat berdi senga? Yo o'zing ham...*

*Ha, gap bu yoqda ekan-da! Men nima dardda-yu, bu kishim. Alam qilib ketdi.*

*– Qo'yvoring! – dedim yulqinib. – Men qattan bilaman!<sup>2</sup>*

O'zbek jamiyatida farzand otasining yo'lidan boradi; naslni davom ettiradi; familiyani saqlab qoladi. Bu o'rinda "nasl", "familiya" va "davomiylik" tushunchalari o'g'il bola subyekti bilan bog'lanadi. Garchi, o'zbek tilida *farzand* va *bola* so'zlari "bitta ota-onadan dunyoga kelgan bola; o'g'il yoki qiz bola" kabi umumiy ma'noda qo'llanilsa-da, jamiyatdagi androsentrik qarashlar natijasida ko'proq o'g'il bolani ifodalashga xizmat qiladi. Misollarga e'tibor qaratamiz:

*Faqat... har gal ularni o'qiganda bir narsani o'ylayman: mana shu so'zlarni yurak-yurakdan, iztirob bilan aytgan farzand onasi hayot ekanligida qanchalik ko'nglini ololdi ekan? Xotiniga qimmatbaho po'stin olib berayotganida, onasiga bir kiyimlik ko'ylak qo'shib olish yodidan chiqmadimikan?<sup>3</sup>*

*Kuz kirganini qishloq bolasining qo'lidan bilsa bo'ladi<sup>4</sup>.*

*Kechqurun qulog'imni ding qilib turgan edim, ko'chada qo'shni bolalar chaqirib qolishdi<sup>5</sup>.*

Ko'rinadiki, o'zbek tilida *farzand* va *bola* so'zlari aslida neytral ma'noni ifodalasa-da, keltirilgan misollarda mazkur leksemalar o'g'il bola sifatida talqin qilingan. *Qishloq bolasi* iborasi nutqda, asosan, erkak obrazida tasavvur qilinadi. *Bola* so'zi *-lar* ko'plik qo'shimchasi bilan qo'llanilganda, odatda, o'g'il bolalar nazarda tutiladi. Shuningdek, *bola otasining nomini chiqarishi kerak; bola bo'lsang yig'lama* kabi jumalalar ham qiz bolaga nisbatan ishlatilmaydi.

## 2) Aksiologik munosabatni bildiruvchi lisoniy birliklar

Shaxs va uning atrofidagi voqelik o'rtasidagi munosabatlarning aksiologik jihati uning ongi va tilida qadriyatlarga asoslangan olam manzarasi shaklida

<sup>1</sup> Хошимов Ў. Икки эшик ораси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б. 711.

<sup>2</sup> Хошимов Ў. Икки эшик ораси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б. 109.

<sup>3</sup> Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B. 204.

<sup>4</sup> Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B. 16.

<sup>5</sup> Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B. 22.



oʻrnashib, uning diqqat markazida har doim voqelikdagi obyektlar va hodisalar sifati haqidagi shaxsiy baholash turadi. Bu baholash insonning oʻzi va boshqalarning jismoniy, ruhiy, hissiy va aqliy faoliyatiga, shuningdek, dunyodagi obyektlarga nisbatan nuqtayi nazarini belgilaydi<sup>1</sup>. Binobarin, “umumiy dunyoqarash sistemasiga aksiologik dunyoqarash elementlari qoʻshilishi bilan ijtimoiy subyektlarning voqelikka munosabatida aksiologik baho yaqqol koʻzga tashlana boshlaydi”<sup>2</sup>.

Androsentrizmga asoslangan jamiyatlardagi aksiologik tizim erkak va ayolning xulq-atvorini turlicha baholaydi. Chunonchi, “mustaqillik”, “yetakchilik”, “rahbarlik”, “qatʼiyatlilik”, “uddaburonlik”, “tashabbuskorlik”, “diyonalilik”, “dovyuraklik”, “shijoatlilik”, “matonatlilik”, “gʻururlilik”, “sahiylik” va h.k. fazilatlar, asosan, erkakka xos deb qaraladi va aksariyat hollarda ijtimoiy jihatdan yuqori baholanadi. Ayolga xos boʻlgan sifatlari, xususan, “muloyimlik”, “mehribonlik”, “yumshoqlik”, “xushfeʼllik, xushchaqchaqlik”, “uyatchanlik” va h.k. esa koʻpincha ijtimoiy jihatdan kamroq qadrlanadi. Gender xoslanishlardagi bunday asimmetriya jamiyatdagi qadriyatlar darajasiga asoslanadi.

Aksiologik munosabat, ayniqsa, til tizimida yaqqol namoyon boʻladi. Shaxsga gender nuqtayi nazaridan baho berishda ham erkak va ayollarga nisbatan turli birliklari qoʻllaniladi. Jumladan, erkaklarga nisbatan ishlatiladigan til birliklari aksariyat hollarda neytral yoki ijobiy maʼnoga ega boʻladi. Ayollarga nisbatan qoʻllaniladigan til birliklarida esa, odatda, salbiy, qolaversa, kamsitivchi bahoning kuchli ekanligi kuzatiladi. Masalan, erkakning faolligi *tashabbuskorlik* bilan, ayolning faolligi esa *haddan oshganlik* bilan baholanishi mumkin. Shuningdek, erkakka nisbatan *botir, jasur, mard, pahlavon, bir soʻzli, oqil* va boshqa ijobiy sifatlarning keng qoʻllanilishi kuzatiladi.

F.Usmanovning qayd etishicha, “erkaklarning jismoniy xususiyatlari eng koʻp baquvvatlik va pahlavonlik” vositasida namoyon boʻladi. “Oʻzbek xalqining tarixida koʻplab jasur va pahlavonlar oʻtgan. Ularning taʼrifi va madhini xalq ogʻzaki ijodi namunalarida koʻplab uchratish mumkin. Shu sababli baquvvatlik va pahlavonlik oʻzining koʻproq ifodasiga ega ekanligi tabiiy”<sup>3</sup>. Misollarga eʼtibor qaratamiz:

<sup>1</sup> Тухтаев С. Aksiologический подход к изучению пословичной языковой картины мира // Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar. – С. 80. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14564462>

<sup>2</sup> Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (аксиология). – Тошкент: Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2004. – Б.49.

<sup>3</sup> Усманов Ф.Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри ... дисс. – Андижон, 2019. – Б. 116.



– Ha, Polvon aka, menga yomon ta'sir qildi gapingiz, – dedi rais. – Men shuncha yoshga kirib, bunday gapni eshitmagan edim. Yashirmayman, **mard odamsiz**, tushunasiz...<sup>1</sup>

*Bu uyqusi qochgan ko'hna pahlavon cho'l bilan bellashayotgan, xuddi shu cho'ldek bag'rikeng, ammo navqiron, har qaysisi alohida kitobga qahramon bo'lsa arziydigan, biri-biriga o'xshamagan tabiatli yigitlarni ko'rayotganimga, ular bilan hamsuhbat bo'layotgani ga ich-ichimdan sevinaman*<sup>2</sup>.

*Urush tufayli eri, uchta alpomishday o'g'li, suluv kelinidan judo bo'lgan To'lg'anoy Momo yer bilan suhbat quradi*<sup>3</sup>.

Qayd etilganlar bilan birga, o'zbek tilida erkaklardagi baquvvatlik, pahlavonlik xususiyatlari *ayiqdek, arslondek, yo'lbarsdek, filday, sherday, qo'chqordek* kabi o'xshatishlar orqali ham aks ettirilishi mumkin:

*Azaldan timliklar orasida parvoz qilayotgan qushning ko'zidan uradigan merganlar, mohir ertakchi va baxshi-shoirlar, xalq tabobati ustalari, noyob qobiliyat egalari, ohuday chopqir, ayiqday kuchli pahlavonlar yashab o'tishgan*<sup>4</sup>.

Ayollarga nisbatan esa *itoatko'r, sabrli, uyatchan, tortinchoq, yuvosh, beozor, beg'ubor* singari xususiyatlar me'yor sifatida belgilanadi.

## 2. Murojaat shakllarida androsentrizmning aks etishi

Kommunikatsiya jarayonida muloqotchilarning munosabati uning ijtimoiy mavqeyi, mansabi, lavozimi, unvoni, yoshi va jinsiga ko'ra quyidagi darajalarda namoyon bo'ladi:

- simmetrik – bir pog'onali, teng bo'lgan muomala;
- asimmetrik – turli pog'onadagi, teng bo'lmagan muomala<sup>5</sup>.

Simmetrik munosabatda kommunikantlar bir xil, ya'ni teng mavqega ega bo'ladi (talaba – talaba, o'qituvchi – o'qituvchi, xodim – xodim)<sup>6</sup>, simmetrik munosabatda esa kommunikantlar iyerarxik tizim asosida muomalaga kirishadi: boshliq – xodim, ota – o'g'il, o'qituvchi – talaba<sup>7</sup>. Bu qatorga er – xotin dixatomiyasini ham kiritish mumkin.

<sup>1</sup> Шукур Холмирзаев. Сайланма. I-жилд. Хикоялар. – Б. 105. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) кутубхонаси.

<sup>2</sup> Саид Ахмад. Чўл бургути. – Тошкент: Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1960. – Б. 19.

<sup>3</sup> <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/mustaqillik-matbuoti/abdug-ofur-rasulov-shafoat-yog-dusidan-bahramandlik-1991>

<sup>4</sup> <https://nurnews.uz/242-s160.html>

<sup>5</sup> Усманова Ш. Корейс ва ўзбек мулокотида асимметрик мурожаат бирликлари // Адабий алоқалар ва қиёсий адабиётшуносликнинг долзарб масалалари // Халқаро конференция материаллари. 2. – Фаргона, 2018. – Б. 137.

<sup>6</sup> Дорофеева А.В. Английское обращение в системе и в дискурсе: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тверь, 2005. – С.16. // [nauka-shop.com](http://nauka-shop.com).

<sup>7</sup> Аҳмедова Н.Ш. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 79-80.



O'zbek lingvomadaniyatida androsentrizm fenomeni, ayniqsa, er-xotin orasidagi munosabatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Chunonchi, er-xotin orasida murojaatlarning qo'llanilshidagi qarama-qarshilik erining xotininga nisbatan "sen", xotinning esa eriga nisbatan "siz" deb xitob qilishida aniq ko'zga tashlanadi. Androsentrizmning aniq ko'rinishi ifodalangan "sen" murojaatida yaqinlik, samimiylik bilan birga, ustunlik aks etadi. "Siz" murojaatida esa hurmat bilan birga, tobelik, ijtimoiy masofa ifodalanadi. Garchi, ushbu me'yor diniy manbalarda qat'i belgilanmagagan bo'lsa-da, o'zbek patriarxal, iyerarxik jamiyatining asimmetrik muomala madaniyatining mahsuli hisoblanadi:

– *Senga ozroq pul yuborgan edim, olgandirsan... Direktor bilan chiqisholmay sovxozdan ketdim. Hozir ishim yaxshi, katta hovlini sotib, pulini singlim bilan baravar bo'lib oldim. Omonat kassada ham uncha... muncha...*

*Xayri o'girilib unga qaradi. Oy nuri endi Hasanning yuzini yoritib turardi. «O'zgarmabdi, yuziga sal-pal ajinlar tushibdi, xolos, hali ham chiroyli, yoqimli...» deya dildan o'tkazdi Xayri. Uning ko'nglida yilt etib chaqnagan muhabbat hislari bir nafas uni o'z og'ushiga olgandek bo'ldi. Biroq Xayri o'zini juda tez o'nglab oldi. So'ngan cho'g'ni puflab alangalatish qiyin edi.*

– *O'g'limiz uchun, Xayri...*

– *O'g'limning otasi yo'q. – Xayri shunday dedi-yu, tomog'ini bo'g'ib kelayotgan ichki dardni yashirolmadi, ko'zlaridan yum-yum yosh to'kildi. – U sizni tanimaydi. Uni o'z familiyamga o'tkazib olganman. O'g'lingiz, xotiningiz borligi endi yodingizga keldimi?*<sup>1</sup>

Ayon boladiki, o'zbek lingvomadaniyatida erkak yuqori, boshqaruvchi pozitsiyada turuvchi androsentrik subyekt, ayol esa quyi pozitsiyada turuvchi, tobe nutq subyektini sifatida gavdalanadi.

Shu bilan birga, o'zbek ayollari erining ismini aytib chaqirmaydi, ismini aytib chaqirish hurmatsizlik hisoblanadi. Ular ko'pincha eriga "xo'jayin" deb murojaat qiladi. "Xo'jayin" xitobi ham androsentrizmning ko'rinishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Zero, o'zbek tilida "xo'jayin" so'zi "egalik, sohiblik qiluvchi", "boshqaruvchi", "hukmron shaxs" ma'nolarini ifodalab, ayol kishining bo'ysunuvchi nutq subyektini ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi:

*Prokuror shofyorini bo'ralab so'kib terilarni qaytarib yubordi. Kechga yaqin prokurorning xotini kelib, qo'yavering, mulla aka, bizning xo'jayin shunaqalar. Biror nima beradigan bo'lsangiz o'zimga beravering, dediyu boya qaytib kelgan terilarni har biriga uch so'mdan to'lab olib ketdi*<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Саид Аҳмад. Танланган асарлар. III жилдлик. I жилд. Ҳикоялар. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 143.

<sup>2</sup> Саид Аҳмад. Танланган асарлар. III жилдлик. I жилд. Ҳикоялар. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 43.



### 3. Androsentrik xususiyatlarni sintaktik birliklar orqali ifodalanishi

Tilning sintaktik darajasida androsentrizm erkakning me'yoriy, universal asosiy subyekt sifatida qabul qilinishi, ayolning esa ikkinchi darajali subyekt pozitsiyada kelishi bilan namoyon bo'ladi. Ayol va erkak shaxsiga bunday yondashuv gap tuzilishi, gapda subyektning o'ri, shuningdek, boshqa tarkibiy qismlarda kuzatiladi.

Tilda erkak subyektining umumlashtiruvchi pozitsiyasi, yuqorida qayd etilganidek, erkakni "standart shaxs" sifatida talqin qilishga olib keladi. Masalan:

*Inson o'z oilasi haqida qayg'urishi kerak.*

Mazkur jumladagi *inson* leksemasi aslida grammatik jihatdan neytral hisoblanadi. Biroq kontekstda bu so'z ko'pincha erkak subyekt sifatida talqin qilinadi. Binobarin, erkakning oila boshi, naslning davomchisi ekanligi, umuman, erkakning hayot yo'li insonning umumiy hayot yo'li sifatida taqdim etiladi.

Erkak shaklining sintaktik ustuvorligini quyidagi misol vositasida quvvatlash mumkin:

*Barcha xodimlar yig'ilishda qatnashishlari shart!*

Ushbu gapdagi "xodim" erkak jinsidagi ot. U barcha xodimlarga (jumladan ayollarga) nisbatan qo'llaniladi. Bu o'rinda erkak shaklining umumiy me'yor sifatida qabul qilinganini ko'rish mumkin. Leksemaning ayol shakli (xodima) esa faqat aniqlashtirish zarur bo'lgan vaziyatlarda, ya'ni, kontekstga aniqlik kiritish kerak bo'lgan holatlarda qo'llaniladi.

Gapda ayol shaxsini ifodalovchi otlar ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi. Masalan:

*Ilmiy kengash raisi majlisni ochib, kotibaga so'z berdi.*

Keltirilgan kontekstda rais – erkak, kotiba esa yordamchi vazifada kelgan. Bu o'rinda androsentrik jihat erkakning boshliq, ya'ni asosiy professional subyekt, ayolning esa ikkilamchi, bog'liq figura sifatida kelishida yuzaga chiqadi.

Shu bilan birga, ayrim holatlarda sintaktik darajada ayolning faol ishtiroki orqa planda qolib ketishi mumkin:

*Qaror rahbariyat tomonidan qabul qilindi.*

Bu kontekstda gap ayol haqida borayotgan bo'lsa ham subyekt yashrin holda qoladi. Jumladagi faol agent esa assotsiativ tasavvurda erkak sifatida qabul qilinadi.

Aytilganlar bilan birga, tildagi sintaktik parallellarda, xususan, juft so'zlarda erkakning birinchi o'rinda kelishi kuzatiladi. Masalan:

*Er-xotin qo'sh ho'kiz.*

*Er-xotinning urushi doka ro'molning qurishi.*

Yoki:

*Ota-onalar majlisiga kech qolmang.*

*O'g'il-qizni voyaga yetkazish oson ish emas.*



Yuqorida keltirilgan gaplarda erkak shaxs sintaktik jihatdan birinchi pozitsiyada kelib, iyerarxik ustuvorlikka ega bo'lganini ko'rish mumkin.

Tilning sintaktik sathida erkaklar, odatda, fe'ning buyruq maylidan ko'proq foydalanadilar. Masalan:

*Shuhrat Akramovich sigaretasini o'chirib, to'lib qolgan kuldonna chetga surib qo'ydi, suyukli o'glining ismini eshitgandan so'ng vujudiga iliqlik yugurdi, ammo xotinining yuziga qaramay to'ng'illadi:*

– *Nigor, menga qara, sen ham shu payt menga aql o'rgatma. Yaxshisi, derazani ochib qo'y. Tamaki hidi o'rnashib qolibdi. Menga aql bo'lguncha manavi kuldonna bo'shatib kel. Xonaga shuncha kirib chiqding-u, shunga qolganda aqling cho'loqlik qildimi? O'zi “mehribon maslahatchilar”ga ishonib, shu holga tushdim. Bo'ldi-da endi. Ovqat yegim kelmayapti, dedim-ku! Bor, bolalarga tushuntir, meni kasal, de, gripp de*<sup>1</sup>.

Ayollar esa, aksincha, muloyim va yumshoqroq sintaktik vositalardan foydalanishadi. Ayollar suhbatdoshining fikriga qo'shilish yoki qo'shilmasligini hamda shaxsiy munosabatlarini ifodalash ekan, suhbatdoshini xafa qilib qo'ymaslik uchun ehtiyot bo'lib jumla qurishadi, ya'ni o'z e'tirozlarini, noroziliklarini ifodalash uchun tilning sintaktik qurilishida mavjud bo'lgan neytralroq konstruksiyalardan, qoliplardan foydalanishadi. Masalan, *keyinroq borsak bo'lmaydimi, keyinroq borsak bo'lar ekan, keyinroq boraylik, keyinroq bora qolaylik, keyinroq bora qolaylik, maylimi?, keyinroq borsak nima deysiz?* va h.k. Erkaklar esa bu holatda *keyinroq boramiz, keyinroq borsak bo'ladi, keyinroq ham borsak bo'ladi, keyinroq borsak ham bo'ladi* kabi ifoda shakllaridan foydalanishadi.

Qayd erilganlar bilan birga, o'zbek tilida androsenrik xususiyatlar, ayniqsa, salomlashish vaziyatidagi sintaktik vositalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Tilshunos X. Doniyorovning qayd etishicha, buning bir jihati musulmon xalqlarining muqaddas kitobi bo'lgan “Qur'on” ayollarning erkaklar bilan to'liq shaklda salomlashishga ruxsat etmaganligiga borib taqaladi. Shu sababdan Samarqand shahri atrofidagi ayollar erkaklarga umumiy salomlashishning qisqargan shaklida “assalom” deb salom bergan. Xuddi shu sababga ko'ra qipchoq dialektlarining vakillari bo'lgan ayollar erkaklar bilan “keling” deb salomlashgan<sup>2</sup>. Mazkur fikrni quyidagi misol bilan quvvatlash mumkin.

*Kompyuter kolonkasidan Sarvarning ovozi keladi. Kompyuter aloqasiga xos, aks-sadoli, sal sun'iy ovoz. Sarvar (kadr ortidan):*

– *Salom, Dilorom, meni eshityapsizmi?*

Qo'shni Dilorom:

<sup>1</sup> Тошев Ф. Чорраҳа. Қисса ва ҳикоялар – Тошкент: «Mashhur-press», 2017. – Б. 7-8.

<sup>2</sup> Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 111-112.



– *Voy, assalom! Ha, eshityapman*<sup>1</sup>.

**XULOSA.** Androtsentrizm til tuzilishidagi genderga oid nomuvofiqliklar, nomutanosibliklarni ifodalaydi. Androtsentrizm tilning fonetik, leksik, morfologik hamda sintaktik sathlarida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, til birliklarining semantik xususiyatlaridagi gender differensiyalarida kuzatiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida androtsentrizm leksik-semantik darajada, murojaat shakllarida hamda sintaktik birliklar orqali tizimli ravishda ifodalanadi.

O‘zbek tilida “erkak” va “inson” tushunchalarini muvofiqlashtirishda *odam, inson, insono‘g‘li, kishi, farzand, bola, oila boshi, oila kattasi* kabi lisoniy birliklardan foydalaniladi. Mazkur leksemalar erkakni “standart shaxs” sifatida talqin qilishga xizmat qiladi. Ular orasida *kishi* so‘zi “erkaklik” shaxsini aniqlashtirishda faolligi bilan ajralib turadi.

Aksiologik munosabat, muayyan ma‘noda androsentrik yondashuvni yuzaga chiqaradi va bu munosabat til tizimida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Androsentrizm hukmron bo‘lgan jamiyatda erkakning faoliyati va sifatleri ijtimoiy me‘yor, standart sifatida, ayolniki esa aksariyat hollarda istisno yoki qo‘shimcha baho sifatida qabul qilinadi. Tabiiyki, bunday yondashuv lingvomadaniyatda ham o‘z aksini topadi. Binobarin, erkak va ayolning bir tildan istifoda etishi, qolaversa, ularning bir xil kommunikativ xatti-harakati aksiologik jihatdan turlicha baho oladi. Shuningdek, o‘zbek lingvomadaniyatida erkak va ayol dunyosining aksiologiyasi ham miqdor jihatidan, ham sifat jihatidan assimetrik tamoyilga asoslanadi.

O‘zbek tilidagi ayrim murojaatlarda androsentrizm ifodalanib, ularda erkak me‘yoriy adresat sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada neytral birliklar orqali erkak obrazi ustuvorlikka erishadi. Bu o‘z navbatida, ayolga nisbatan maxsus ko‘rsatkichli murojaatlarning qo‘llanilishiga olib keladi.

Tilning sintaktik darajasida androsentrizm erkakning me‘yoriy, universal asosiy subyekt sifatida qabul qilinishi, ayolning esa ikkinchi darajali subyekt pozitsiyada kelishi bilan namoyon bo‘ladi. Ayol va erkak shaxsiga bunday yondashuv gap tuzilishi, gapda subyektning o‘rni, shuningdek, boshqa tarkibiy qismlarda kuzatiladi.

Umuman, o‘zbek tilida androtsentrizm hodisasi til sathlarining ichki qonuniyatlaridan emas, balki jamiyatdagi patriarxal va iyerarxik tizimning lisoniy in‘ikosidan kelib chiqadi. Shuningdek, androsentrik xususiyatlarning tilda voqelanishida ijtimoiy, madaniy omillar bilan birga, muayyan ma‘noda diniy omilning ham ta‘siri kuzatiladi. Binobarin, Islomda erkakka hurmat, ayolning esa kamtarligi axloqiy mezon hisoblanadi. Zero, milliy an‘analarda erkak hurmatni talab qiluvchi, ayol esa hurmat ko‘rsatuvchi shaxs sifatida gavdalanadi. Aslida Islom madaniyati kirib kelganda patriarxal tuzilma azaldan mavjud bo‘lgan.

<sup>1</sup> Аъзам А. Ўзи ўйланмаган совчи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 146.

Keyinchalik patriarxal jamiyatdagi an'analar "islomiy" deb talqin qilina boshlangan.

## “KIFAYATU-N-NAHV FI ILMI-L-E'RĀB” ASARIDA ASLGA O'XSHASH TUSHUM KELISHIGIDAGI ISMLARNING TAHLILI

*Jumaniyazov Mansur Davletbayev*

*TDSHU tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada arab tilida ismlarning nasb holati, ya'ni tushum kelishigida kelishi va ularning xususiyatlari Ziyoviddin Makkiy Xorazmiyning “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb” asari asosida o'rganiladi. Xususan, asarda keltirilgan hol va uning turlari, xususiyatlari, aniqlashtiruvchi, uning gapdagi vazifalari tadqiq etiladi. Shuningdek, ismlarning tushum va qaratqich kelishigida berilishini taqazo etuvchi istisno yuklamalari va ularning moslashuv qoidalari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Hol, ravish holi, birlikdagi hol, hol ergash gapli qo'shma gap, aniqlashtiruvchi, cheklovchi, istisnolik va istisno yuklamalari.

**Abstract:** This article examines the accusative case of nouns in the Arabic language and its characteristics based on Ziyoviddin Makkiy Khorezmi's work "Kifayatu-n-Nahw fi 'Ilm al-I'rāb". Specifically, it explores the states and their types, properties, explanatory structures, and their syntactic roles in a sentence as presented in the work. The study also analyzes exceptional particles that require the use of nouns in the accusative and genitive cases, along with their agreement rules.

**Keywords:** Circumstantial accusative (*hāl*), adverbial accusative, circumstantial accusative in the singular, complex sentence with a circumstantial subordinate clause, specifier/accusative of specification (*tamyīz*), restrictive, exception and exceptive particles.

**Аннотация:** В данной статье исследуется винительный падеж имён в арабском языке и его особенности на основе труда Зиявиддина Макки Хорезми «Кифаяту-н-нахв фи ильми-ль-ираб». В частности, рассматриваются состояния, их виды и характеристики, а также пояснительные конструкции и их синтаксическая функция в предложении. Кроме того, анализируются исключительные частицы, требующие употребления имён в винительном и родительном падежах, и правила их согласования.

**Ключевые слова:** обстоятельный винительный падеж (*hāl*), наречный винительный падеж, одиночный обстоятельный оборот, сложноподчинённое предложение с придаточным обстоятельства, уточняющий член (*tamyīz*), ограничение, исключение и исключаютые частицы.

**KIRISH.** Arab tili – murakkab grammatik tizimga ega bo'lgan, dunyodagi eng boy va qadimiy tillardan biri hisoblanadi. Bu tildagi ifoda imkoniyatlarining kengligi, avvalo, uning sarf va nahv qoidalariga qat'iy rioya qilinishida yaqqol namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, arab tili grammatikasining muhim bo'limlaridan biri hisoblangan nahv (sintaksis) ilmida ismlarning e'robi, ya'ni ularning jumlada tutgan o'miga qarab o'zgarishi alohida tadqiqotlarni talab qiladi.